



**IV-SHO'BA:
IQTISODIYOT VA PSIXOLOGIYA: INSON
RESURSLARI BOSHQARUVI VA
MOTIVATSIYA**

**O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL OYNALARI ISHLAB CHIQARISH
SANOATI: "AVTOOYNA" MCHJ MISOLIDA**

Qurbanov Abdulaziz Muzafarovich
Toshkent davlat texnika universiteti,
katta o'qituvchi
qurbanovabdulaziz8913@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan avtomobil oynalari ishlab chiqarish sohasi "Avtooyna" MChJ misolida o'r ganilgan. Korxonaning 25 yillik faoliyati davomida erishgan yutuqlari, ishlab chiqarish quvvati, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi va mahsulot sifatini nazorat qilish tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, korxonaning mahsulot assortimenti, xalqaro hamkorlik aloqalari va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korxona nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida soha yetakchisi sifatida faoliyat yuritayotganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: avtomobilsozlik sanoati, avtomobil oynalari, ishlab chiqarish texnologiyalari, sifat nazorati, kadrlar salohiyati, xalqaro hamkorlik, mahalliy lashtirish.

O'zbekiston sanoat tarmog'ining rivojlanishida avtomobilsozlik sohasi alohida o'r in tutadi. Mazkur sohaning muhim tarkibiy qismlaridan biri avtomobil oynalari ishlab chiqarish sanoati hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda avtomobil oynalari ishlab chiqarish sohasining yetakchi korxonasi – "Avtooyna" mas'uliyati cheklangan jamiyatining faoliyatini tahlil qilinadi.

“Avtoyna” MChJ O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8-oktyabrdagi qaroriga asosan tashkil etilgan bo’lib, asosiy maqsadi mahalliy avtomobilsozlik sanoatini xavfsiz oynalar bilan ta’minlash va butlovchi qismlar ishlab chiqarishni o’zlashtirishdan iborat edi. Korxona 25 yillik faoliyati davomida o’z maqsadlariga erishib, nafaqat O’zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida soha yetakchisiga aylandi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 420 ming donadan ortiq mahsulotni tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi, jumladan, Bystronic Glass (Shvetsariya), Cugher Glass, Ctriulzi, Mario Argiro, Kera Glass (Italiya), Glassrobots, Pilkington (Finlyandiya) va Vetrotool (Ispaniya) kabi jahonga mashhur kompaniyalarning uskunalari qo’llaniladi. Bu esa mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasida ta’minlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda korxona mahsulot assortimenti 150 turdan ortiq bo’lib, ular asosan “UzAvto Motors” AJ avtomobil modellari uchun mo’ljallangan xavfsiz avtooynalar to’plamini o’z ichiga oladi. Barcha mahsulotlar General Motors (GMW 3136) global ishlab chiqarish standartlariga mos keladi. Bundan tashqari, “SamAvto” MChJ, “MAN Auto Uzbekistan” QK, “Toshkent qishloq xo’jaligi mashinalari zavodi” AJ va boshqa ishlab chiqaruvchilar uchun ham maxsus avtooynalar ishlab chiqarilmoqda.

Avtomobil va maishiy texnika oynalari ishlab chiqarish korxonasining mahsulotlar ro’yxati quyidagilardan iborat. Korxonada AVEO rusumli avtomobillar uchun shaffof va qoraytirilgan oldi oynalari (artikul: 4268056826, 4268056735, 4257475246, 42341760), orqa oynalari (artikul: 42341758, 42341759), eshik oynalari; Cobalt/GSV EM rusumli avtomobillar uchun oddiy va EraGlonass tizimli oldi oynalari (artikul: GSV EM52053815, GSV EM52092543), orqa va eshik oynalari; Lacetti rusumli avtomobillar uchun oddiy va isitiladigan oldi oynalari (artikul: 96545261, 96940947), orqa va eshik oynalari; M300 Spark rusumli avtomobillar uchun Ero Glonass tizimli, qoraytirilgan va quyoshdan

himoya chizig'i bilan jihozlangan oldi oynalari (artikul: 42452266, 95161210, 95983029), isitiladigan orqa oynalari, harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan eshik oynalari ishlab chiqariladi.

Shuningdek, korxonada Damas rusumli avtomobillar uchun yashil rangli oldi oynalari (artikul: 96915801, 96915802), harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan eshik oynalari, yon va orqa oynalari, STD va DLX komplektatsiyalari uchun maxsus oynalar; xorijiy avtomobillar (Kia Rio, Hyundai Solaris, Renault Logan, Toyota Corolla, Volkswagen Polo, Toyota Camry, Skoda Octavia, Lada Vesta) uchun turli xil oynalar; maishiy texnika mahsulotlari uchun maxsus oynalar, jumladan FERRE gaz plitalari uchun maxsus oynalar, SAM NUR TAVFIZ va SAM Electro Servis pechlari uchun oynalar hamda SPTA 7554 71,068 uchun naqshli oynalar ishlab chiqariladi.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan barcha turdag'i avtomobil oynalari O'zbekiston Respublikasi standartlariga muvofiq ishlab chiqariladi va mahalliy hamda xalqaro sertifikatlarga ega. Oynalarning sifati zamonaviy texnologiyalar va yuqori malakali mutaxassislar yordamida nazorat qilinadi. Korxona mahsulotlari nafaqat O'zbekiston Respublikasi hududida, balki MDH davlatlari va xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinadi. Har bir mahsulot turi uchun maxsus ishlab chiqarish liniyalari mavjud bo'lib, ular avtomatlashtirilgan tizimlar bilan jihozlangan va yuqori sifatli xomashyolardan foydalaniladi. Korxonaning texnologik salohiyati va ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos jihatlari alohida e'tiborga loyiq. Finlyandiya texnologiyasi (PILKINGTON, GLASSROBOTS) yordamida oldi oynalar avtomobil kuzovi o'lchamlariga to'liq moslashtirilgan holda ishlab chiqariladi. Termik jarayonlar orqali zichlashtirilgan oynalar ishlab chiqarishda Italiya (MARIO ARGIRO) va Ispaniya (VETROTOOL) texnologiyalari qo'llaniladi, bu esa kerakli parametrdagi ichki kuchlanish va minimal og'ishli oynalar ishlab chiqarish imkonini beradi. Shveytsariya texnologiyasi (BYSTRONIC) esa eng aniq o'lchamlarga ega yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Sifat nazorati korxonaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Akkreditatsiyalangan laboratoriya mahsulotlarning xavfsizlik va haydovchining ko'rish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha barcha zarur sinovlarni o'tkazadi. Bundan tashqari, korxonada kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Texnik xodimlar muntazam ravishda Yevropa Ittifoqi va Rossiya Federatsiyasida malaka oshirish kurslarida ishtirok etadilar.

Xulosa qilib aytganda, "Avtooyna" MChJ O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritib, zamonaviy texnologiyalar va yuqori malakali kadrlar salohiyati asosida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Korxonaning rivojlanish strategiyasi va ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasi mahalliy avtomobilsozlik sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sanoat korxonalarida innovatsiona faoliyatning rivojlanish asoslari. Qurbanov A.M. "Sanoat iqdisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar" Toshkent - 2024. 154-156.
2. "O'zavtosanoat" AJ kuzatuv kengashining 2023 yil 30 noyabrdagi 18-2023-sон bayonnomasiga ilova. Toshkent – 2023.